

2025-yil 23-avgust

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tashkil topganligining 15 yilligi keng nishonlandi



Bugun “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda yurtimiz Mustaqilligining 34 yilligi hamda korxonada tashkil topganining 15 yilligi munosabati bilan “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida bir qator tadbirlar o‘tkazildi.

Tadbirlarda Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon Azimov, Dehqonobod tumani hokimi Sherzod Shokirov, “O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati va korxonada ishchi-xodimlari ishtirok etdi.



Unda mehnat fidoiylarining yuksak hissasi e'tirof etildi, so'zga chiqqanlar korxonaning 15 yillik taraqqiyot yo'li, yutuq va muvaffaqiyatlarini qayd etishdi.

Bayram munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlar doirasida 30 nafar kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun xayriya asosida sunnat to'ylari o'tkazildi. Shuningdek, o'zining vijdonan va sadoqat bilan xizmat qilgan, fidokorona mehnati bilan ajralib turuvchi xodimlar Qashqadaryo viloyati va Dehqonobod tuman hokimliklari, "O'zkimyosanoat" AJ hamda korxonaga rahbariyati tomonidan faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Tadbir davomida ko'p yillar mobaynida samarali faoliyat yuritgan xodimlar tantanali tarzda nafaqaga kuzatildi. Bunday e'tirof va e'tibor mehnatkashlar qalbida katta faxr va hurmat tuyg'ularini uyg'otdi.



Tadbir yakunlari bo'yicha korxonaga jamoasining hamjihatligi, ezgu qadriyatlarga sodiqligi va yurt taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib hissasi alohida ta'kidlandi.







“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-kaliy-zavodi-aj-tashkil-topganligining-15-yil-ligi>